

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universitetining 2025-yil 29-
dekabrda 5-son Universitet Kengashi
Majlis bayoni ijrosini ta'minlash
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 2-dekabrda 5-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar" mezonning 10-bandida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida:

B U Y U R A M A N :

1. Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va filial direktorlariga:
 - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining 2025-yil 29-dekabrda 5-son Universitet Kengashi Majlisida muhokama qilinib tasdiqlangan Akademik halollik talablari ilovaga muvofiq rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
 - universitetning talabalari, pedagog xodimlari, o'quv jarayonini tashkil etuvchi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tadqiqotchilar (doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar) hamda boshqa manfaatdor shaxslarga Akademik halollik talablarining mazmun-mohiyati va ahamiyati, shuningdek, ushbu qoidalarini buzganlikning huquqiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilsin.
2. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i (S.Polvanov)ga:
 - Akademik halollik talablari rasmiy veb-saytlariga joylashtirilsin.
3. Devonxona mudiri (M.Satimova)ga:
 - mazkur buyruq o'rnatilgan tartibda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari va fakultet dekanlari e'tiboriga yetkazilishi ta'minlansin.
4. Ushbu buyruq ijrosini nazoratini O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.Xodjaniyazov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 2-dekabrda 5-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar" mezonning 10-bandi, Urganch davlat universitetining 2025-yil 29-dekabrda 5-son Universitet Kengashi.

**Rektor v.v.b.
Asliga to'g'ri**

Xodimlar bo'limi boshlig'i



S.Xodjaniyazov

B.Odamov

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti rektorining
2025-yil 30-dekabrda
№ 221-I§2-son buyrug'iga ilova

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI AKADEMIK HALOLLIK TALABLARI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Akademik halollik talablari talabalar, pedagog xodimlar, o'quv jarayonini tashkil etuvchi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tadqiqotchilar (doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar) hamda boshqa manfaatdor shaxslar uchun mo'ljallangan.

Mazkur Akademik halollik talablari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqlangan (2025 yil 29 dekabrda 5-son bayonnoma).

KIRISH

Akademik halollik talablari (bundan buyon matnda – Talablar) o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonining barcha ishtirokchilari hamda boshqalarning ishi natijalariga hurmat munosabatini rivojlantirishga, ilmiy faoliyat natijalarini intellektual mulk sifatida tan olishga va unga nisbatan munosib munosabatni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Talablar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet deb yuritiladi) talabalari, pedagog xodimlari, o'quv jarayonini tashkil etuvchi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tadqiqotchilar (doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar)ning akademik halolligi masalalariga adolatli, oshkora, to'g'ri munosabatini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Talablarning maqsadi akademik yaxlitlikni ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilishni ta'minlash, talabalar (bakalavriat va magistratura talabalari), tadqiqotchilar (doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar), pedagog xodimlarning akademik ta'lim hamda ilmiy tadqiqotlar doirasida akademik halollik, ta'lim va ish davomida tadqiqot faoliyati tamoyillarini belgilashdir.

3. Talablar o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonidagi akademik halollik tushunchasi va tamoyillarini, talabalar va tadqiqotchilarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, akademik halollikni buzish turlarini va agar ular universitetda sodir etilgan bo'lsa, tegishli choralar ko'rish tartibini belgilaydi.

4. Akademik halollik – o'quvchining o'qish va yozma ishlarni bajarishda (testlar, esselar, bitiruv malakaviy ishlari va dissertatsiyalar), oraliq va yakuniy nazoratlar, imtihonlarda savollarga javob berishda, tadqiqot olib borishda, o'z bilimini ifoda etishda, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar hamda talabalar bilan munosabatlarda halollikni ifoda etadigan qadriyatlar va tamoyillar majmuidir. Akademik halollik ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda, ilmiy maqolalar, monografiyalar, PhD va DSc

dissertatsiyalarini tayyorlash va nashr etishda barcha universitet xodimlari, doktorant va mustaqil izlanuvchilarga taalluqlidir.

5. Akademik halollikning asosiy tamoyillari:

Halollik - Ta'lim jarayonida bilimni mustaqil egallash, imtihon va topshiriqlarda aldov, plagiat va soxtalashtirishga yo'l qo'ymaslikni anglatadi.

Ishonch - Talaba, o'qituvchi va ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ishonch muhitini shakllantirish, baholash va akademik faoliyatning shaffof bo'lishini ta'minlaydi.

Adolatlilik - Barcha talabalar uchun teng sharoit yaratish, baholash mezonlarining aniqligi va xolisligini saqlash, kamsitish va favoritizmga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi.

Hurmat - Akademik hamjamiyat a'zolarining fikri, mehnati va mualliflik huquqlarini hurmat qilish, akademik muloqot madaniyatiga rioya etishdir.

Mas'uliyat - Har bir ishtirokchining (talaba, o'qituvchi, rahbariyat) akademik halollik qoidalariga amal qilishi, qonunbuzarliklarning oldini olish va ularga befarq bo'lmaslik majburiyatini anglatadi.

Jasorat - Noto'g'ri holatlarga qarshi turish, akademik qoidabuzarliklarni yashirmaslik, halollikni himoya qilish va to'g'ri qaror qabul qilishda qat'iyat ko'rsatishdir.

II. HUQUQ VA MAJBURIYATLAR

6. Universitet ushbu Talablar shartlarining bajarilishini talab qilishga va ular buzilgan taqdirda tegishli choralar (sanksiyalar) qo'llashga haqlidir.

7. Universitet talabalar va xodimlarning akademik halolligi yo'nalishidagi huquq va majburiyatlari to'g'risida xabardor qilinishini ta'minlash, shuningdek shaxsiy va maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishdan qonun talablarga muvofiq ravishda to'liq himoya qilish uchun har tomonlama kurashishga majburdir.

8. Universitet o'qituvchilar, talabalar va tadqiqotchilarga tegishli ilmiy yoki akademik darajani muvaffaqiyatli qo'lga kiritishda yordam berish hamda talabalarga barcha kurslar, esselar, topshiriqlar va imtihon materiallarida mualliflik huquqi qoidalariga rioya qilgan holda akademik yaxlitlik va ilmiy axloq qoidalari bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish majburiyatiga egadir.

9. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlari talabalarga va tadqiqotchilarga ushbu Talablar doirasida ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida tushuntirishlar berishlari, belgilangan tartibda bajarilishini nazorat qilishlari shart.

10. Fakultet dekanlari talabalar va professor-o'qituvchilarni akademik halollik talablari to'g'risida xabardor qilinishini ta'minlash va ularning bajarilishini nazorat qilishlari shart.

11. Talabalar va tadqiqotchilar o'z ishlarini bajarishda ilmiy axloq va mualliflik huquqi qoidalariga rioya qilishlari shart.

III. AKADEMIK NOHALOLLIK (QOIDABUZARLIK)

12. **Plagiat** – bu o'zgalar ijodiy faoliyati natijalarini ataylab o'zining fikri kabi taqdim etish, jumladan manbaga to'liq havola qilmasdan foydalanishdir.

Plagiat holatlariga boshqa birovning oshkor qilingan yoki oshkor qilinmagan

asarining ayrim qismlarini yoki to'liq qayta ishlash yoki ifoda yo'sinini o'zgartirish, manba (havola)ni ko'rsatmaslik yoki uni inkor qilish va ushbu materialni asarni o'zinikidek taqdim etish kiradi. Mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan ijodiy faoliyat natijalariga O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi talablariga javob beradigan asarlar kiradi.

Plagiat quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- asar muallifini (manbasini) ko'rsatmasdan undan iqtibos olish yoki boshqacha yo'sin bilan ifodalash;

- fikr manbasini ko'rsatmasdan boshqacha yo'sin bilan ifodalash;

- muallifini ko'rsatmasdan bironing g'oyalari yoki dalillaridan foydalanish;

- internetdan to'liq olingan yoki ilgari boshqa talabalarga taqdim etilgan yozma ishni (oralik, yakuniy nazorat) o'zlashtirish orqali bitiruv malakaviy ishini yoki magistrlik dissertatsiyasini topshirish.

13. **Ko'chirmakashlik** – bu har qanday ruxsatsiz yozma (bosma, qo'lyozma) manbalardan foydalanish, shuningdek texnik aloqa vositalaridan foydalanish, talabaning bilimlarini auditoriya nazoratidan o'tkazishda (imtihonlarda, test sinovlarida yoki boshqa majburiy attestatsiya tadbirlarida) bajargan vazifasining mohiyati to'g'risida ma'lumotni ruxsatsiz qabul qilishning boshqa usullaridan foydalanishdir.

14. **Ishni ruxsatsiz qayta topshirish yoki ikki marotaba topshirish** – talabalar tomonidan bilimlarni oralik yoki yakuniy nazoratdan o'tkazish uchun mustaqil ishlarni topshirishda turli xil yozma ishlar nomi ostida bir xil matnni taqdim etish va boshqalar. Kichik o'zgarishlar va tuzatishlar, masalan, esse yoki boshqa yozma ishni boshqacha yo'sin bilan qayta bayon etish.

Ilgari tayyorlangan matnni muallifning o'zi kattaroq asarning bir qismi sifatida ishlatishi ikki marotaba topshirish yoki qayta topshirish deb hisoblanmaydi.

15. Baholarni, ma'lumotlarni, baholanayotgan ishlarni soxtalashtirish:

- baholar, topshiriq bo'yicha javoblarni baholash natijalarini soxtalashtirish;

- ma'lumotlarni soxtalashtirish (qo'shish, kiritish, tuzatish), ya'ni tadqiqot davomida olib borilgan so'rovnoma, anketa va boshqa usullardagi o'lchash va kuzatish natijalarini soxtalashtirish;

- yozma nazorat ishlari bahosini ko'tarib qo'yish;

- boshqa talabaning baholanadigan ishini ataylab qalbakilashtirish yoki buzish.

16. Javoblarni olish:

- imtihon materiallari, test savollari va boshqa materiallar kabi maxfiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish;

- baholanadigan ishni bajarish paytida javoblarni berish yoki imtihon topshiriqlariga javoblarni uzatish;

- boshqa talaba, xodim, o'qituvchi yoki boshqalar yordami bilan baholangan ishni yoki imtihon testlarining javoblarini bajarishdan oldin materiallarni qisman yoki to'liq olish;

- tayyor baholanadigan ishlar yoki imtihon javoblarini/testlarni sotib olish yoki sotib olishga ko'maklashish yoxud sotishda boshqa yo'l bilan yordam berish;

- har qanday usul bilan, shu jumladan elektron pochta, kompyuter va boshqa vositalar orqali yuklab olish;

- qog'ozdan va/yoki elektron tashuvchidan baholangan ish bilan bog'liq materiallarni olib chiqish yoki o'qituvchi, universitet xodimining kompyuteridan nusxa ko'chirish;

• maxfiy ma'lumotlarni oldindan kelishuvlarsiz uchinchi shaxslarga tarqatish yoki oshkor qilish.

17. **Soxtalashtirish (kelishuv)** – bu boshqa shaxs tomonidan to'liq yoki qisman o'z shaxsiy ishi sifatida bajarilgan majburiy yozma ishlarni talabaga yetkazish yoki o'z ishini boshqa odamga haq evaziga yoki bepul taqdim etishdir.

18. **Yolg'ochilik** – muayyan holatlar, voqealar, faktlar to'g'risida qasddan adashtirish.

19. **Noto'g'ri taqdim etish** – soxta topshiriqlar, o'qishlar, sertifikatlar va boshqa hujjatlarni topshirish yoki akademik maqsadlarda dalillarni taqdim etish.

Buzilishlarga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan chegaralanmaydi:

- o'zgartirilgan materiallar va tadqiqot natijalari;
- uydirma faktlar yoki manbalar;
- soxta sertifikatlar;
- soxta hujjatlar;
- soxta tavsiyanoma va boshqa xatlar;
- soxta transkriptlar, diplomlar yoki boshqa ma'lumotlar;
- topshiriq sanasi va vaqtini o'zgartirish;
- baho ma'lumoti yoki imtihon materialidagi o'zgarishlar;
- qayta yetkazib berish uchun darajalangan ishni o'zgartirish.

20. **Boshqa shaxs sifatida namoyon qilish** – imtihonlar, test sinovlari, laboratoriya ishlari yoki boshqa topshiriqlar paytida akademik imtiyozlarni qo'lga kiritish uchun o'zini boshqa shaxs sifatida namoyon qilish.

21. **Ma'lumotlarni yashirish** – aldash yoki akademik imtiyozga ega bo'lish maqsadida ma'lumotlarni, transkriptlarni yoki boshqa o'quv hujjatlarini yashirish.

22. **To'siq va to'sqinlik yaratmoq** – adolatsiz akademik yutuqqa erishish uchun boshqalarning ta'lim yoki ilmiy faoliyatiga to'sqinlik yoki blokirovka qilish. Bunga o'quv maqsadlarida ishlatiladigan soxtalashtirilgan ma'lumotlar, fayllar, qo'lyozmalar yoki boshqa materiallar, ilmiy ishlar, kutubxona asboblari yoki mol-mulkning shikastlanishi, elektron yoki boshqa materiallar kiradi.

23. **Auditoriya mashg'ulotlari va konsultatsiyalarga to'sqinlik qilish, halaqit berish** – o'qituvchi, dekan, murabbiy (tyutor) tomonidan oqilona baholangan, dars yoki konsultatsiyani maqsadli ravishda buzishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar.

24. **Akademik yaxlitlik qoidalarini buzishda kimgadir yordam berish** – boshqa talabaga boshqa darsda topshirilgan vazifani jo'natish, topshiriq qismlarini takrorlash va o'zinikidek topshirishga ruxsat berish.

25. Akademik bilim darajasini olgungacha bitiruvchi kurslarning akademik nohalolligi quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

• **adolatsiz amaliyot** – bitiruv malakaviy amaliyotini o'tashni e'tiborsiz qoldirish, bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos kelmaydigan tashkilotda amaliyotni o'tash yoki amaliyot natijalariga ko'ra soxta hujjatlarni taqdim etish;

• bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasining plagiatligi. Bitiruv malakaviy ishning originalligi (o'ziga xosligi) bakalavr darajasi uchun kamida 55%, magistr darajasi uchun dissertatsiya ishining 60% bo'lishi;

• bitiruv malakaviy ishni yoki magistrlik dissertatsiyani himoya qilish paytida axloqqa zid xatti-harakatlar.

26. Akademik yaxlitlikni buzish turlari ro'yxati to'liq emas va zarur hollarda to'ldirilishi mumkin.

IV. ILMIY-TADQIQOT ISHLARIDA AKADEMIK NOHALOLLIK

27. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda odob-axloq doirasidagi asosiy talablar quyidagilardan iborat:

• **mualliflikni to'g'ri belgilash** – mualliflik huquqi prinsiplariga rioya qilgan holda, intellektual mulk obyekti yaratilishiga o'zining ijodiy hissasini qo'shgan jismoniy shaxs tan olinadi. Tadqiqot ishi yaratilishiga o'zining ijodiy hissasini qo'shgan barcha jismoniy shaxslar tadqiqot ishining hammualliflari sifatida ko'rsatilishi kerak. Hammualliflar orasida tadqiqotda qatnashmagan jismoniy shaxslarni ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi;

- plagiatga yo'l qo'yilmasligi, havolalarni to'g'ri va to'liq taqdim etish;
- muhofazalangan ijodiy faoliyat, ilmiy kashfiyot natijalarini o'zlashtirishga yo'l qo'yilmasligi, yangilikka e'tibor qaratish;
- asarning o'ziga xosligini ta'minlash;
- ilmiy polemikadagi to'g'rilik, taqrizchi, sharhlovchi va tadqiqotchini haqorat qilish yoki kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- tajribalar o'tkazishda, ilmiy nazariyalarni shakllantirishda ilmiy vijdonlilik;
- shaxsiy kasbiy javobgarlikni anglash;
- salbiy oqibatlar uchun axloqiy javobgarlikni anglash.

28. Quyidagilar ilmiy tadqiqotda odob-axloq qoidalari (etika)ning buzilishi hisoblanadi:

- soxtalashtirish, o'zlashtirish va plagiat;
- mualliflikni yoki ilmiy ishlarni yaratishga ijodiy hissa qo'shganlikni tan olmaslik;
- yangi ma'lumotlar, g'oyalar yoki e'lon qilinmagan (maxfiy) qo'lyozmalardagi ma'lumotlardan tegishli ruxsatsiz foydalanish;
- arxiv hujjatlaridan foydalanish qoidalari buzgan holda arxiv materiallaridan foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligiga rioya qilmaslik.

29. Ilmiy ish rahbari faoliyatidagi axloqiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

• **hammualliflik** – har bir hammuallifning ishga qo'shgan ijodiy hissasi nashr mazmuni uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish uchun yetarli bo'lishi kerak. Ilmiy rahbar ta'lim oluvchi (talaba)ning intellektual mulki hisoblangan ilmiy ishga umuman hissa qo'shmaganda hammuallif bo'lishni talab qilishga haqli emas;

• o'tgan yillar uchun tayyor ilmiy ishlar materiallarini turli shakllardagi mukofotlar olish yo'li evaziga yoki shaxsiy manfaatdorlik maqsadida mukofot (haq) olmasdan tarqatish taqiqlanadi;

• **ta'lim oluvchiga (talabaga) nisbatan xolislik** – rahbarning fikr-mulohazalari va tavsiyalari ishning ilmiy saviyasini oshirishga qaratilgan obyektiv va prinsipial bo'lishi kerak;

• rahbar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun e'lon qilinmagan ishidan nusxalar olish taqiqlanadi.

30. Taqrizchi faoliyatidagi axloqiy tamoyillar:

• mualliflik huquqi materiallarining ilmiy ekspertizasini o'tkazishda xolislik, xususan, ishni maxfiy hujjat sifatida ko'rib chiqish, tanishib chiqish yoki muhokama qilish uchun ishni vakolati bo'lmagan uchinchi shaxslarga berish taqiqlanadi;

• baholanayotgan ishning boshqa har qanday ilmiy ish bilan ahamiyatli yoki qisman o'xshashligiga, shuningdek, ushbu yoki boshqa mualliflarning ilgari nashr etilgan

ishlarida qayd etilgan argumentlar, xulosalar yoki dalillarga havolalar yoʻqligi faktlariga eʼtibor qaratish;

- taqrizchining fikr-mulohazalari va takliflari ishning ilmiy, uslubiy va uslubiy darajasini oshirishga qaratilgan asosli, xolis va prinsipial boʻlishi lozim;
- aniq faktlar asosida xulosa qilish, xulosaning asosli va isbotlanganligi;
- oʻz shaxsiy ehtiyojlari uchun hali eʼlon qilinmagan ishidan nusxalar olish;
- ilmiy ish nashr etilishidan oldin uning mazmuniga oid materiallardan oʻz manfaatlari uchun foydalanish taqiqlanadi.

Taqdim etilgan ilmiy ishni baholash uchun oʻzini yetarli darajada malakaga ega emas deb hisoblagan yoki xolis boʻla olmaydigan taqrizchi, masalan, muallif yoki universitet bilan manfaatlar toʻqnashuvi yuz bergan taqdirda, bu haqda uni ushbu ishni koʻrib chiqish jarayonidan chetlashtirish iltimosi bilan xabar berishi shart.

31. Axloq qoidalarini buzish holatlarining oldini olish uchun ilmiy tadqiqot yoki uning natijalarini aniqlash jarayonida ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatlar toʻqnashuvi – nizolarni istisno qilish kerak. Manfaatlar toʻqnashuvi muallif, taqrizchi yoki universitet harakatlariga taʼsir qilishi mumkin boʻlgan moliyaviy, ilmiy yoki shaxsiy munosabatlar boʻlganda yuzaga keladi. Ikki tomonlama majburiyatlar, raqobatdosh manfaatlar yoki raqobatdosh sodiqlik tushunchasiga kiradigan munosabatlar bundan mustasno.

32. Tadqiqot ishlarining originalligi (oʻziga xosligi) (ilmiy maqolalar, monografiyalar, PhD va DSc dissertatsiyalari) kamida 85% ni tashkil qilishi hamda iqtiboslarning umumiy hajmidan oʻzining ishlariga boʻlgan iqtiboslari “15%”dan koʻp boʻlmasligi kerak.

V. UNIVERSITET PEDAGOG XODIMLARINING JAVOBGARLIGI

33. Universitet professor-oʻqituvchilari dars paytida akademik halollikni saqlash uchun javobgardir.

34. Universitet professor-oʻqituvchilari ushbu Talablar qoidalarini boʻyicha barcha darajadagi va oʻquv shaklidagi taʼlim oluvchilar bilan har qanday mavjud vositalar orqali tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak: ogʻzaki tushuntirishlar, sillabusdagi eslatmalar, mustaqil ishlarni bajarish uchun tarqatma materiallar va boshqalar.

35. Universitet pedagog xodimlari quyidagi hollarda akademik halollikni buzganlik uchun intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin:

- **yashirish** – yaʼni ishning vijdonsiz bajarilishi yoki ushbu Talablarning boshqa qoidalariga rioya qilmaslik toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni sir saqlash;

- **til biriktirishlar** – har qanday baholanadigan ishni taʼlim oluvchining oʻrniga bajarish (muayyan toʻlov evaziga yoki bepul boʻlishi ham mumkin);

- **akademik maʼlumotga noqonuniy ega boʻlish va/yoki uni tarqatish** – imtihon materiallarini va/yoki ularga javobni yetkazish, shuningdek, taʼlim oluvchilarni/imtihon topshiruvchilarni beriladigan savollardan xabardor qilish, tayyor maʼruza, esse, topshiriq va akademik ishlarni sotish va/yoki sotib olishda yordam berish;

- baholanadigan ishning har qanday javobini duch kelgan usulda oʻgʻirlash, jumladan, taʼlim oluvchiga taqdim qilish uchun elektron pochta orqali yoki kompyuterdan yuklab olish;

• **qalbakilashtirish** – akademik ishdagi bahoni yoki topshiriqqa javoblarni, ma'lumotlarni, imzoni soxtalashtirish, akademik ishga qasddan zarar yetkazish yoki uni qalbakilashtirish;

• **vakolatlarni suiiste'mol qilish** – ta'lim oluvchilardan noqonuniy manfaatdorlik, lavozim majburiyatlari doirasida vakolatlarni suiiste'mol qilish turli shakldagi taqdirlashlarni berish va/yoki olish yo'li bilan yoxud taqdirlanishsiz shaxsiy manfaatdorlikdan;

• **o'zgartirish (bahoni ko'tarish)** – ta'lim oluvchiga moyillikdan va/yoki ko'rsatgan xizmati uchun mablag' olish evaziga bahoni o'zgartirish.

VI. AKADEMIK NOHALOLLIK (QOIDABUZARLIK) DARAJALARI

36. Akademik nohalollik holatlari jiddiyligiga qarab quyidagi darajalar bo'yicha tasniflanadi:

• **birinchi darajali akademik nohalollik** – talabalarning akademik o'zlashtirishiga uncha katta bo'lmagan ta'sir ko'rsatuvchi natija;

• **ikkinchi darajali akademik nohalollik** – oldindan ko'zda tutilgan va rejalashtirilgan nohalollik bo'lib, yakuniy bahoga ta'sir qiladigan darajada ahamiyatlidir;

• **uchinchi darajali akademik nohalollik** – yakuniy bahoga ta'sir qilib, ta'lim jarayoniga aralashuv bilan bog'liq tarzda oliy ta'lim muassasasining jiddiy ma'muriy javobgarligini ko'zda tutadi, universitetdan haydash/o'qishdan chetlatishgacha bo'lishi mumkin;

• **to'rtinchi darajali akademik nohalollik** – buning natijasida subyekt O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni ko'zda tutuvchi ta'lim jarayoniga aralashgan shaxslarning huquqlariga tajovuz qiladi.

VII. JAVOBGARLIK (SANKSIYALAR)

37. Talaba yoki magistr'larga nisbatan akademik nohalollikning darajasiga qarab quyidagi sanksiyalar qo'llaniladi:

• birinchi darajali akademik nohalollik – yakuniy bahodan **-10%**;

• ikkinchi darajali akademik nohalollik – yakuniy bahodan **-30%**;

• uchinchi darajali akademik nohalollik – O'quv-uslubiy kengash tomonidan ko'riladigan o'qishdan chetlatishga tavsiya;

• to'rtinchi darajali akademik nohalollik – o'qishdan chetlatish.

38. Dekanat mazkur Talablarning buzilish holatlari haqidagi ma'lumotni saqlashi va uni O'quv-uslubiy boshqarmaga hamda O'quv-uslubiy kengashga tegishli masalalarni hal qilish uchun taqdim qilishi kerak.

39. Universitet pedagog xodimlari, tadqiqotchilari va xodimlariga qo'llanadigan sanksiyalar:

• birinchi darajali akademik nohalollik – **hayfsan**;

• ikkinchi darajali akademik nohalollik – **oylik maoshidan -30%**;

• uchinchi darajali akademik nohalollik – ishdan bo'shatishga yoki doktoranturadan (mustaqil izlanuvchilikdan) chetlatishga tavsiya, Ilmiy-uslubiy kengashda ko'rib chiqiladi;

• to'rtinchi darajali akademik nohalollik – ishdan, doktoranturadan (mustaqil izlanuvchilikdan) chetlatish, bo'shatish.

40. Sanksiyani qo'llash bo'yicha qaror ustidan uch ish kuni ichida apellyatsiya berilishi va u bir oy ichida Universitet Kengashi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

41. Mazkur Talablarga Universitet Kengashining qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

42. Mazkur Talablar xalqaro standartlar va quyidagi xorijiy talablar asosida ishlab chiqilgan:

- AQSh Harvard universitetining akademik halollik va akademik nohalollik talablari;
- Kanadaning Carleton universiteti akademik halollik siyosati;
- Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti plagiat qoidalari.